



SOVIET REPRESSION AND ITS CONSEQUENCES

Mirzohid Abdujabborov

Intern-teacher at Namangan State Pedagogical Institute

E-mail: mirzokhid5500@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: “Kasimovchilik”, “Inoghamovchilik”, “triple”, “Batir speakers”, “group of 18”, “printing activities”.

Received: 10.11.25

Accepted: 11.11.25

Published: 12.11.25

Abstract: In this article, Uzbekistan in the 20-30s of the 20th century. It is about the repression carried out by the Soviets. During this period increased repression by the Soviets of national patriotic cadres it is distinguished by its destruction. Especially this policy coincided with 1937-1938, when the period of Repression reached its peak.

SOVETLAR DAVRIDAGI QATAG‘ONLIK VA UNING OQIBATLARI

Mirzohid Abdujabborov

Namangan davlat pedagogika instituti stajor-o‘qituvchisi

E-Mail: mirzokhid5500@gmail.com

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “Qosimovchilik”, “inog‘omovchilik”, “uchlik”, “Botir gapchilar”, “18 lar guruhi”, “bosmachilik harakatlari”.

Annatatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda XX asrning 20-30 yillarida sovetlar tomonidan olib borilgan qatag‘onlik haqida so‘z boradi. Bu davrda amalga oshirilgan qatag‘onlik milliy vatanparvar kadrlarning sho‘rolar tomonidan ayovsiz yo‘q qilinishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa bu siyosat qatag‘onlik davrini eng uchiga chiqqan payt 1937-1938-yillarga to‘g‘ri kelgan.

РЕПРЕССИИ В СОВЕТСКОЕ ВРЕМЯ И ИХ ПОСЛЕДСТВИЯ

Мирзохид Абдужабборов

Стажёр-преподаватель Наманганского государственного педагогического института

E-mail: mirzokhid5500@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Касимовчилик», «Иногамовчилик», «тройной», «Батир», спикеры», «группа из 18 человек», «полиграфическая деятельность».

Аннотация: В данной статье Узбекистан в 20-30- годы 20 века.

Речь идет о репрессиях, проводимых Советами. Сделано за этот период усиление репрессий со стороны Советов против национально-патриотических кадров он отличается своей разрушенностью. Особенно эта политика совпала с 1937-1938 годами, когда период репрессий достиг своего апогея.

Kirish. Jahon tarixi odamzod o'zi yashab turgan makonida ko'p miqdorda yovuzlik, jinoiy harakatlar sodir etganiga shohiddir. Fransuz olimi Laynus Polinga o'zining «Hech qanday urush bo'lmasin» nomli asarida yer yuzida keyingi 5,5 ming yil davomida 14500 ta katta va kichik urushlar bo'lib, ularda 4 milliardga yaqin odam halok bo'lgan, bu bundan bir necha o'n yil oldin yer kurrasida yashayotgan odamlar miqdoriga tengdir», deb yozgan edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Harbiy harakatlar yuz berishi va yuz bermasligidan qat'iy nazar turli mamlakatlarning u yoki bu hududida qotilliklar, portlashlar, yong'inlar, zaharlanishlar, odamlarni o'g'irlash va boshqa harakatlar yuz bergan va hozirda ham sodir bo'lmoqda. Oktyabr to'ntarishi oqibatida Turkistonda zo'rlik bilan o'rnatilgan mustamlakachi Sovetlar tuzumi birinchi kundan boshlab xalqimiz boshiga son-sanoqsiz qirg'inlar, dahshatli va alamli kulfatlar olib keldi. Bu dahshatli rejimni o'lkamiz xalqlari qabul qilmadilar. Ular istiqloq uchun, erk va milliy-ozodlik uchun 16 yil mobaynida qurolli kurash olib bordilar. Bu kurash davomida, ayrim xorijdagi muarrixlar hisobicha, 1 million 900 ming vatandoshimiz Turkistondan bosh olib, xorijiy mamlakatlarga chiqib ketdi va 1 million 700 ming yurtdoshimiz Sibirga, Uzoq Shimolga, Ukrainaga, Shimoliy Kavkazga, Uralga, Qozog'istonga, Uzoq Sharqqa, Kavkazga, Volgabo'yi rayonlariga surgun qilindi. XX asrning 20-yillarida amalga oshirilgan qatag'onlar shunisi bilan ajralib turadiki, bu davrda o'z xalqi uchun jonini ayamay xizmat qilgan siyosiy rahbarlar asossiz ayblar bilan qatag'on qilindi. Mustabid tuzum Markazdan O'zbekistonga o'zining ko'p sonli sadoqatli xodimlar, vakillarini rahbariy lavozimlarda ishlashga uzluksiz yuborib turdi. Ular yordamida o'lka hayotida kechayotgan barcha jarayonlar, o'zgarishlardan doimiy xabardor bo'lib, mahalliy kadrlar faoliyatini kuzatib, nazorat qilib bordi. O'z xalqi, yurtining milliy manfaatlarini himoya qilib, uning istiqbolini ko'zlab, o'zida kuchiroda topib, bor haqiqatni aytishga jur'at qilgan millat kishilari birinchi navbatda hukmron Markazning qahr-zahriga duchor bo'ldi. Qatag'on zulmkorlari, ularning gumashtalari bir imoishora bilan bunday yurt fidoyilarini oradan olib tashlash, faoliyatini og'machilik, buzg'unchilikda ayblash, sha'niga millatchi, xalq dushmani, aksilinqilobchi, burjua malaylari

singari asossiz bo'xtonlar bilan la'nat tamg'asini tirkashga doimo tayyor turardilar.[1] Buning yorqin ifodasini sovet mafkurachilari tomonidan to'qib chiqarilgan va o'zbek milliy kadrlari sha'nini bulg'ashga qaratilgan «18 lar guruhi», «inog'omovchilik», Milliy kuchlar safining bo'lib tashlanishi «qosimovchilik» degan siyosiy ishlar misolida ko'rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur guruhlar faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni ko'zdan kechirib, tahlil etar ekanmiz, bu insonlar xatti-harakatida, faoliyatida ularni ayblashga bois bo'ladigan hech bir asosli ashyo-dalillar bo'lmaganligiga to'la amin bo'lamiz. Ularning yagona «gunohi» - bu o'z millati dardi, tashvishi va manfaatini ko'zlab, ayrim muhim muammolarni ko'targanligi va ularni hal etishga yuqorining e'tiborini jalb etganligi bo'ldi xolos. Xo'sh, «18 lar guruhi» tarkibi kimlardan iborat bo'lgan? Ular sovet mutasaddilari oldida qanday gunoh qilgan edilar? Respublikaning taniqli arboblardan tashkil topgan bu guruhdagi I. Xidiraliyev, M. Saidjonov, U. Ashurov, R. Rahimboboyev, R. Rafiqova va boshqalarga tirkalgan asossiz aybga, uyushtirilgan tuhmatu-bo'htonga ko'ra, go'yo uning a'zolari ko'p masalalarda noto'g'ri yo'l tutganlar. Aslida esa ular hukmron Markazning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydlik yo'lga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilib chiqqandilar. Shu bois rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralandi va uning a'zolari o'z lavozimlaridan olinib, turli partiyaviy jazolarga giriftor etildilar. «Inog'omovchilik» guruhi to'g'risida gap borganda ham unga qo'yilgan barcha ayblarning to'liq tarzda to'qib chiqarilganligi ayon bo'ladi. Ma'lumki, Rahim Inog'omov O'zKP(b) MQ Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif xalq komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. «Inog'omovchilik» guruhi to'g'risida gap borganda ham unga qo'yilgan barcha ayblarning to'liq tarzda to'qib chiqarilganligi ayon bo'ladi.

Ma'lumki, Rahim Inog'omov O'zKP(b) MQ Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif xalq komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. U 1926-yilda «O'zbekiston ziyolilari» degan risolasini e'lon qilgan. Risolada oktabr o'zgarishi o'zbek xalqi uchun kutilmagan voqea bo'ldi va unga o'zbek mehnatkashlari tayyor emas, degan gaplarni yozdi. Uning risolasida oktabrgacha bo'lgan davrda «...Rus istibdodiga qarshi mustaqillik harakatida tarixiy rolni ziyolilar o'ynagan», degan haqqoniy fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek, R. Inog'omov o'zining bir qator nutqlarida O'zbekiston Kompartiyasining mustaqil faoliyat yurita olmayotganligiga, Markazning nazoratchi organlarining o'lka hayotidagi zo'ravonligiga ham alohida e'tibor qaratgan. Respublikaning bir qator mahalliy partiya, sovet organlari mas'ul xodimlaridan N. Mavlonbekov, I. Isamuhammedov, M. Aliyev singari hammaslaklar Inog'omov qarashlarini qo'llab-quvvatlab chiqqandilar. Albatta, bunday muxolifotchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan, jazolanmasdan qolmasdi. Shu bois 1926– 1927-yillarda bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida

bir necha bor muhokama qilinib, og'machi guruhbozlikda ayblandi. R. Inog'omov va uning tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi, o'zlari esa tavba-tazarru qilishga majbur etildilar.[2]

«Qosimovchilik» guruhi ham 1929 – 1930-yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma bo'lgan. O'zSSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlab kelgan Sa'dulla Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari deb topilgan N.Alimov, B. Sharipov kabi 7 kishi 1929-yilning ikkinchi yarmida qamoqqa olinadilar. Ularning atayin to'qib chiqarilgan «ayblov ishi»ga siyosiy tus beriladi. Bunga ko'ra, ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'laganlikda ayblandilar. Ular «bosmachilik» harakatiga yon bosganlikda qoralandilar.[4] Bu guruh Akmal Ikromov. Yo'ldosh Oxunboboyevning 4 ta a'zosi mana shunday asossiz ayblar bilan ayblanib, otib tashlandilar, qolgan 3 kishi esa ko'p yillik qamoq jazosiga hukm qilindilar.[3]

O'zbekiston ravnaqi, istiqboli uchun, xalqining baxt-u saodati, farovon turmushga erishishi uchun fidoyilik ko'rsatgan Fayzulla Xo'jayev, Turor Risqulov, Abdulla Rahimboyev, Akmal Ikromov, Isroil Ortiqov, Abdulla Karimov va boshqa o'nlab nomdor mahalliy rahbar kadrlarning hayot qismati ham pirovardida mana shunday fojia bilan yakun topdi. Mustabid tuzum hukmdorlari va ular gumashtalarining yeng shimarib qilgan «sa'y-harakatlari» natijasida 1937–1938-yillarda go'yo O'zbekistonda bir qator yirik aksilinqilobiy tuzilmalar borligi to'qib chiqarildi. Bular: respublika rahbarlari A.Ikromov va F.Xo'jayev boshchiligidagi «Burjua-millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi», Abdurauf Qoriyev rahbar bo'lgan «Musulmon ruhoniylarining millatchi-isyonchilar tashkiloti», «Aksilinqilobiy o'ng troskiychi josuslar tashkiloti markazi», «Buxoro va Turkiston baxt-saodati» nomli aksilinqilobiy tashkilot, I. Ortiqov boshliq «Yoshlarning aksilinqilobiy burjua millatchilik tashkiloti», «Ingliz josuslik rezidenturasi», «Yapon josuslik qo'poruvchilik rezidenturasi» va boshqalar edi. 1937-yil 30 iyuldan boshlanib 1938-yil noyabriga qadar davom etgan qizil terror mobaynida 1,5 million kishi qamoqqa olingan, shundan 700 minggi otib yuborilgan.

Qatag'onning qahrli tig'i jamiyat a'zolarining barcha toifalarini o'z domiga tortgan. O'zbekistonda esa 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvarga qadar o'n ming etti yuz kishi qamoqqa olingan. Bulardan 3 ming 613 kishi qatl etildi, 7087 kishi 8-10 yil muddatga qamoqqa tashlandi. O'sha yillari aholining barcha qatlamlari qatag'on girdobiga tushgan. Qatag'on avvalo, ziyolilar, din xizmatchilariga qarshi qaratilgan edi. Faqat 1937-yil dekabr oyida «uchlik» qarori bilan hukm qilingan 3644 nafardan 1464 nafari imom, eshon, mulla va boshqa diniy xizmatchi bo'lgan. 1938-yilning fevralida «uchlik» yig'ilishlarida 2491 nafar mahbus ustidan hukm chiqarilgan, shundan 2086 nafar mahbus otuvga, 398 nafar mahbus 10 yil muddatga, 2 mahbus 8

yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan. To'rt mahbus tergov vaqtida vafot etgan, bir kishigina ozod etilgan.

1937-1938-yillarda I.V.Stalin boshchiligida Sovet hokimiyati amalga oshirgan siyosiy qatag'onlar insoniyat tarixidagi eng dahshatli fojialardan biri edi. Bu davrda Sovet hokimiyatiga, uning mafkurasiga qarshi har qanday o'zgacha fikrlash, hatti-harakatga chek qo'yish, xalqni asoratda tutish, partiya va hukumat organlarini so'zsiz itoat etuvchi kadrlar armiyasiga aylantirish maqsadida misli ko'rilmagan ko'lamda qatag'on siyosatini avj oldirdi. Bu qatag'on to'liqlini eng avvalo davlat arboblari, partiya va hukumat organlari, muassasalardagi mas'ul kadrlarga qaratildi. O'zbekistonda bu jarayonda o'sha davrning eng ilg'or, faol, bilimli va tashkilotchi milliy kadrlari, ziyolilari, maorif va madaniyat xodimlari, olimlar, ziyolilar, yozuvchilar mash'um qatag'on qurboni bo'ldilar. Stalin hukumati nafaqat ularning o'zlarini, balki oila a'zolarini ham qatag'on girdobiga tortdi. Eng so'nggi ma'lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilishlar, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublika hududida butunlay bo'lmaganligini tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksilinqilobiy tashkilotlar totalitar tuzum buyurtmasi asosida Markaz jallodlari va jazo organlari tomonidan atayin to'qib chiqarilgan. Buning orqasida ming-minglab begunoh, aybsiz insonlar shafqatsiz jazolangan, aziz umrlari xazon bo'lgan. Faqat 1937—1938-yillarda O'zbekistonda hammasi bo'lib mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan. Ulardan uchlik: siyosiy boshqarma vakili, ichki ishlar xodimi va mahalliy hokimiyat vakili nazarda tutiladi. ming 920 nafari otib tashlangan, 37 ming nafari esa turli muddatli qamoq va surgunlarga hukm etilgan.[4]

1937-1938 yillardagi qirg'indan so'ng xalqning sovet davlati rahbarlariga bo'lgan ishonchi tamomila yo'qolgan va aksincha xalqda sovet davlati va uning rahbarlariga nisbatan nafratli kayfiyat kuchaygan edi. Shu kayfiyat umumxalq qo'zg'oloni darajasiga ko'tarilishi mumkinligini sezgan Stalin va VKP(b) MKning Siyosiy byurosi 1937-1938 yillarda ommaviy qatag'onning avj olishidagi hamma aybni "temir narkom" Yejov zimmasiga yuklab, "suvdan quruq chiqmoqchi bo'lgan" va Yejov bilan birga bir qancha chekistlar ham otib tashlangan. Stalin va Siyosiy byuroning ko'rsatmasi bilan NKVDning markaziy va respublikalardagi apparatida, jumladan shu apparatlar qoshidagi partiya tashkilotlarida yig'ilishlar o'tkazilib, Yejov va uning hamtovoqlari qoralangan. Bu ko'zbo'yamachilikning ayni o'zi edi. Shunga qaramay, jabrdiyda xalqning muayyan qismi aldanib, o'zidagi nafratni Stalin va Siyosiy byuro a'zolariga emas aksincha yejovlar va apresyanlarga qaratdi. NKVDning ozodlikda yashab, o'z zimmalariga yuklangan vazifalarini bajarishda davom etayotgan xodimlari buni yaxshi sezishgan. Shuning uchun ham NKVDning 30-yillardagi jallodlaridan biri Agabekov o'sha yig'ilishda bunday deb mag'rurlangan: "Men bu yerda ishimizdagi faqat salbiy tomonlar

haqidagina gapirishni istamayman, ijobiy ishlarni ham qayd qilgim bor, Mana masalan Ikromov tashkilotini uzil-kesil tugatib, shu tashkilotning markazi bo'yicha 160 kishini qamoqqa oldik. Mana, Ortiqov va Tarasov boshchiligidagi yer bilan yakson qilingan birlashgan yoshlar troskiychi-millatchilik tashkilotini oling, Ikromovning qarindoshi Abdurauf Qoriyev rahbarlik qilgan, ingliz razvedkasi bilan aloqa bog'lagan josuslik-dindorlik tashkilotini oling; paxta sanoatidagi fosh etilgan Gurevich rahbarligidagi josuslik-qo'poruvchilik tashkilotini, yirik eserlarning dashnoq tashkilotini, 1937 va 1938-yillarda tugatilgan boshqa o'nlab aksilinqilobiy tashkilotlarni oling. 4-bo'limning barcha jamoasi yomon ishlamadi. Kechani kecha, kunduzni kunduz demay xizmat qildi". Agabekov shu yig'ilishda o'zi rahbarlik qilayotgan 4-bo'limda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ham chetlab o'tmasligini aytadi. Uning "mardona" e'tirof etishicha, shoshilinch ishlar bo'yicha xodimning xatosi bilan eserlar tashkiloti a'zosi Dmitriy Panchenko o'rniga Mixail Panchenko qamoqqa olingan va u 2 kun nohaq qamoqda yotgan ekan, undan ming bor uzr so'rab, ozod qilib yuborishgan emish. Yuksiz Agabekov minglab siyosiy savodi bo'lmagan o'zbeklarning nohaq qamoqqa olinib, otib tashlangani yoki 10 yillik qamoq jazosiga muhtalo etilganini o'z ko'zi bilan ko'rgani va hatto shu qonli jinoyatni shaxsan o'zi boshqargani holda respublika partiya tashkilotining rahbari oldida shunday latifani aytishga zarracha ham uyalmagan. Ko'ramizki, "Katta qirg'in" yillarida minglab oilalarning otadan, aka-ukadan, farzandidan, hatto onadan judo bo'lishida NKVD xodimlarining ayblari haddan ziyod katta bo'lgan. Shunga qaramay, ular o'z jinoyatlarining kasri yetti avlodiga yetishi mumkinligini o'ylab ham ko'rmaganlar. Uzbekiston NKVD DXB partiya tashkilotining 1939-yildagi yopiq yig'ilishlaridan biridagi ichki ishlar xalq komissari Sajayaning ma'ruzasidan ma'lum bo'lishicha, shu yili respublika NKVD organlaridan 224 kishi haydalib, shulardan 55 kishi hibsga olingan. Apparatdagi o'zbeklar soni 25 taga yetkazilgan. NKVD organlaridagi "zararkunandalik ishlari" oqibatini bartaraf etish uchun chekistlar mardonavor ishlab, aksari tuxmat orqasida qamalgan 17000 kishining ishini qayta ko'rib, sudga oshirgan va ulardan 3 ming kishi ozod qilingan. "Uzbekiston NKVDsi organlaridagi dushmanlar faoliyatining keng quloch yoyganini shundan ham bilsa bo'ladiki, - degan edi. Ushbu yig'ilishda Sajaya, - xalq komissarligining yangi rahbariyati nohaq qamoqqa olinganlarning 40 foizini ozod qilishni lozim deb topdi. NKVD organlari MK va XKSning 17 noyabrdagi qaroridan keyin mutlaqo to'g'ri yo'ldan borib, birinchi navbatda, ayniqsa, Surxondaryo va Xorazm okruglaridagi ommalaviy ravishda qamoqqa olingan kolxozchilarning ishlarini o'rganishga kirishdi. Kolxozchilarning ozod qilinishi aholi o'rtasida sovet hokimiyati va NKVD organlariga muhabbat uyg'otish ishida katta siyosiy ahamiyatga molik bo'ldi".[5]

O'zbekistonga rahbarlik qilgan mashhur shaxslardan Akmal Ikromov va Fayzulla Xo'jayevlarni tilga oladigan bo'lsak, Akmal Ikromov 1929-yil O'zSSR Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining Birinchi kotibi etib tayinlanadi. U «katta terror» boshlanishi bilan respublika Markaziy Qo'mitasining Birinchi kotibi sifatida «maxsus uchlik» tarkibiga kiradi. 1937-yilning sentabrigacha, ya'ni ishdan ketgunga qadar, bir nechta otuv va qamoq hukmlarini chiqarishda ishtirok etadi.

Akmal Ikromov «uchlik»dagi qisqa faoliyati davomida jami yuzdan ortiq O'zbekistonlikning o'limga hukm qilinishida bevosita qatnashadi. 1937-yil 5-sentabrda MQ Birinchi kotibligidan bo'shatiladi va bir necha kundan so'ng hibsga olinadi. Aksilinqilobiy terrorchi tashkilotga a'zo bo'lganlikda ayblanadi hamda 1938-yil 15-martida Akmal Ikromov va Fayzulla Xo'jayev Moskvada otib tashlanadi. 1957 yil to'liq oqlanadi.[6]

Tahlil va natijalar. 1920-yillarning ikkinchi yarmi va 1930-yillarning birinchi yarmida O'zbekistonga rahbarlik qilgan Akmal Ikromov bilan Fayzulla Xo'jayevlar o'z ish faoliyatlari davomida sovet davlatining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy siyosatiga to'la rioya qilgan holda O'zbekistonda fan, madaniyat, sanoat, transport va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga intilganlar. Markaz topshiriqlarini bajarish uchun o'zbek xalqining tuz nasibasini kemtik qilgan hollar ham oz bo'lmagan. Ular yaxshi ma'noda chin kommunistlar bo'lishgan. Ammo "Katta qirg'in" boshlanishi bilan, birinchi navbatda, boshqa ittifoqdosh respublikalarning rahbarlari qatori, ular ham qatag'on domiga tortilganlar. 1938-yilning mart oyida Moskvadagi Kolonnali zalda "o'ng troskiychi blok" ustidan o'tkazilgan namunali sud jarayonida davlat qoralovchisi Vishinskiy respublikamizning sobiq rahbarlariga nisbatan shunday haqoratli munosabatda bo'ldiki, ular nohaq qamoqqa olinganlarini aytish va o'zlarining pok nomlarini himoya qilish o'rniga tergov jarayonida qo'yilgan barcha uydirma ayblarni o'z bo'ynilariga olishga majbur bo'ldilar. Bugun A.Ikromov va F.Xo'jayevning so'nggi so'zlari bilan tanishgan kishi ularning shu darajada ilojsiz qolganlarini ko'rib, hayratga tushadi. Misol uchun A.Ikromov so'zlaridan bir lavxasini eshitadigan bo'lsak: "Men dastlabki tergovda ham, bu yerda ham hech narsani yashirmay, hammasini aytdim. Men nafaqat o'zim va O'zbekistonda hukm surgan millatchilik aksilinqilobchilik tashkiloti qilgan jinoyatlar uchun javobgarman. Men yana "o'ng troskiychi blok"ning josuslik hamda Aleksey Maksimovich Gorkiy, Kuybishev, Menjinskiy singari sovetlar mamlakatining mashhur kishilarini vahshiylarcha o'ldirish, Sergey Mironovich Kirovni mahv etishdek xatti-harakatlari uchun ham o'zimni to'la javobgar deb hisoblayman. Men qanchalik tubanlikka tushib ketganimni tushundim. O'zim qilgan va O'zbekistondagi millatchilik tashkiloti qilgan barcha jinoyatlarni tan olganim holda, o'ngi troskiychi blokning qatnashchisi sifatidagi jinoyatlarimni tan olganim holda aytamanki, hamma bilganimni, hamma jinoyat qatnashchilarini

fosh etib, o'zimni-o'zim quolsizlantirdim. Shuning uchun agar himoya haqida, rahm-shavqat haqida iltimos qilish mumkin bo'lsa, men hozir yalong'ochlangan odamsimon yirtqich ekanligimni aytgan bo'lar edim" degan so'zlarni aytib qilmagan aybini va jinoyatini tan olishga majbur bo'lgan.[7]

Sovet hokimiyati tomonidan hibsga olinganlar va otuvga hukm qilingalar:

Do'lanov Mirabdulla - 1905-yilda Namangan viloyatining Norin tumani Uchtepa qishlog'ida ilmlilar oilasida tavallud topgan. Millati: o'zbek, eshon tarbiyasini olgan. Do'lanov Mirabdulla sovetlarga qarshi qurolli kurash masalalari bo'yicha yashirin yig'ilishlarda qatnashganligi uchun hibsga olingan.

Umrzaqov To'xtamirza - 1905-yilda Namangan viloyatining Norin tumanining Uchtepa qishlog'ida tavallud topgan. Umrzaqov To'xtamirza sobiq quloqlardan bo'lgan va uning oila-a'zolari yuqori lavozimli amaldorlar hisoblangan. U 1932-yilda davlat qoidalarini buzgan holatda va ularga rioya qilmaganligi uchun, tashviqot olib borishda uyushgan qo'poruvchilikka chaqirishda ayblangan. O'zSSR NKVD Andijon sektorining 11099-sonli ayblovi bo'yicha 3 yilga ozodlikdan mahrum qilingan.[8]

Xo'jayev Kenja - 1913 - yilda Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida tavallud topgan. Xo'jayev Kenja hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan. U qurollangan banditlar tarkibiga kirib, qurolli bosqinlarda ishtirok etganlikda ayblangan va shu aybi bilan hibsga olingan.

Qo'ziyev Qayum - 1912-yilda Qashqadaryo viloyatining Shahrizabz tumanida tug'ilgan. Qo'ziyev Qayum o'tmishda bandit bo'lgani uchun javobgarlikka tortilgan. U qurollangan banditlar guruhiga kirganlikda, qurolli bosqinlarda ishtirok etganlikda ayblangan va hibsga olingan.[9]

Ziyaev Ergash - 1880-yilda Andijon viloyatining Izboskan tumanida tug'ilgan. Ziyaev Ergash bosmachilik ishtirokchisi, qo'rboshi hisoblangan, hibsga olingan paytda kolxoz a'zosi bo'lgan. U kolxozchilar orasida aksilinqilobiy, mag'lubiyatchilik targ'iboti olib borganlikda, SSSR dagi ocharchilik to'g'risida ig'vo tarqatganlikda ayblangan va otuvga hukm qilingan.

Qozoqov Ismon - 1897-yilda Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanida tug'ilgan. Qozoqov Ismon sobiq quloq bosmachilik ishtirokchisi hisoblangan, hibsga olingan paytda kolxoz a'zosi bo'lgan. U dehqonlar orasida kolxozga qarshi targ'ibot olib borganlikda, kolxozda mehnat intizomini buzishda ayblangan va otuvga hukm qilingan.[10]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mustabid tuzum jallodlarining bu bedodligini hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Yaqin milliy tariximizning bu qorong'u zulmati xalqimiz dilida mangu o'chmas armon bo'lib qoldi. U faqat milliy istiqlol tufayligina to'la yuzaga chiqib,

bundan yurtimiz fuqarolari chinakam ro'shnolik ko'rmoqdalar. Sovet tuzumining qatag'onlaridan milliy ziyolilar eng ko'p aziyat chekdi, mislsiz qurbonlar berdi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng qatag'on bo'lgan yurtdoshlarni nomini tiklash ishlari olib borilyapti, 31-avgust sanasi "qatag'on qurbonlari" kuni deb belgilandi va har yili bu bayram yurtboshimiz boshchiliklarida nishonlanadi.

Qatag'on bo'lgan yurtdoshlarimizni nomi asta-sekinlik bilan oqlanib, aybsiz deb topilgan. Ularning oilalariga chuqur ta'ziya izxor etilib, qilgan xizmatlari uchun har yili Prezidentimiz tomonidan tashakkurnomalar yuboriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шамсутдинов Р. Истиклол йўлида шаҳид кетганлар. – Т.: Шарқ, 2001. –Б.19
2. <https://daryo.uz/2020/08/14/sovet-tarixidagi-eng-qora-dog-siyosiy-qatagonga-uchraganlarning-haq-huquqlari-tiklanganiga-30-yil-boldi>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sa%CA%BCdulla_Qosimov
4. <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/444-qatagonlik-dawrlari.html>
5. Наим Каримов 1937-1938-йиллардаги “Катта қирғин”нинг фожиали оқибатлари. - Т.: Шарқ, 2015. 11-12-бетлар
6. <https://kun.uz/85638437?q=%2Fuz%2F85638437>
7. Наим Каримов 1937-1938-йиллардаги “Катта қирғин”нинг фожиали оқибатлари. - Т.: Шарқ, 2015. 15-бет.
8. Шамсутдинов Р. Репрессия (1937-1938 гг) Випуск-3. Отв. редактор: Каримов Н. – Т.: Узбекистан, 2007. - Б. 91
9. Shamsutdinov R. Qatag'on qurbonlari (1937-yil 10-avgust -5-noyabr). 2-kitob. Mas'ul muharrir: N.Karimov.-Т.: Sharq, 2007 B. 407
10. Shamsutdinov R. Qatag'on qurbonlari (1937-yil fevral, sentabr). 5-kitob. Mas'ul muharrir: N.Karimov.-Т.: Sharq, 2009 B. 71